



**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**



FAN: | Hidrologiyaga kirish

**O‘zbekiston Respublikasi va O‘rta Osiyodagi qo‘shni davlatlardagi
gidrometeorologiya xizmatini o‘rganish, tahlil qilish. Gidrometeorologik
tarmoqni tasniflash.**



Jumabayeva Gulnora
Usmanbayevna



Gidrologiya va gidrogeologiya
kafedrası assestenti



1

Ishdan maqsad: O‘zbekiston Respublikasi va O‘rta Osiyodagi qo‘shni davlatlardagi gidrometeorologiya xizmatini o‘rganish, tahlil qilish. Gidrometeorologik tarmoqni tasniflashdan iborat.

Gidrometeorologiya xizmati —

mamlakatda meteorologiya, iqlimshunoslik, agrometeorologiya, gidrologiya, geliofizika sohalarida xalq xo‘jaligi uchun ahamiyatli vazifalarni bajarish hamda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, markazlar, rasadxonalar, lab.lar, st-yalar, kuzatuv manzilarini tizimi.

Turkiston o'lkasi hududida Hidrometeorologiya xizmati shakllanishi 19-asrning 70-yillariga to'g'ri keladi. 1867-yilda Toshkent sh.da muntazam meteorologik kuzatishlar yo'lga qo'yilgan. 1870-yilning mart oyidan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasida meteokuzatish ma'lumotlari va ob-havo to'g'risidagi xabarlar e'lon etila boshladi. 1873-yilda Toshkent Astronomiya va fizika rasadxonasi ish boshladi, tez orada u Turkiston o'lkasi meteorologiya xizmatining rahbar markaziga aylandi. 1876-yilda "Toshkent" rasadxona-meteostansiyasi ochildi.

O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmatining rasmiy tashkil etilgan sanasi —1921-yil 7 may hisoblanadi. Shu kuni har xil idoralar tarkibidagi ko'p sonli meteostansiyalar yangi tashkil etilgan xizmat —Turkiston meteorologiya instituti ("Turkmet")ga birlashtirildi. 1929-yilda O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya boshqarmasi ta'sis etildi. Xizmat 1931-yildan boshlab tabiiy muhit holati ustidan kuzatishlar va gidrometeorologik prognozlarning hamma turlarini birlashtiruvchi yaxlit tashkilot tarzida faoliyat ko'rsatmoqda. Jahon ob-havo xizmati tizimi doirasida 1967-yildan Toshkentda meteorologik axborotlar to'planadi, ob-havo haritalari va prognozlari tuziladi va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari va Rossiyaning Osiyo qismiga tarqatiladi. Respublika G.x. 1967-yildan Yerning sun'iy yo'ldoshlaridan axborotlarni fotosuratlar ko'rinishida qabul qilib, amaliy ishlar uchun tahlil qiladi. 1972-yildan tabiiy muhit ifloslanishini muntazam kuzatish ishlari olib boriladi.

Gidrometeorologiya xizmati asosini kuzatuv tarmoklari tashkil etadi. Respublikada 47 meteorologik, 10 gidrologik, 1 suv balansi, 5 ko‘l, 3 qorko‘chki, 14 aviatsiya meteorologik st-yalari, 1 zonal aviamarkaz, 1 balandlik mateomajmua, 2 atrof muhit monitornigi st-yasi, 87 agrometeorologik kuzatish punktlari, viloyatlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini do‘ldan himoya qilish xizmati (57 punktga ega; do‘ldan himoya maydoni 741 ming ga) ishlaydi (2001).

O'zbekiston Respublikasi milliy Hidrometeorologiya xizmati gidrometeorologiya, tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi, iqlim o'zgarishi, cho'llanish, qurg'oqchilik va b. masalalar sohasida faol va ko'p qirrali xalqaro ilmiy-texnik faoliyatni amalga oshirmoqda. 1993-yil 2 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Jahon meteorologiya tashkilotita (JMT) a'zo bo'ldi. Respublika Hidrometeorologiya xizmati xalqaro tashkilotlar: PROON (BMTning rivojlanish dasturi), YUKEP (BMTning atrofi muhit dasturi), YUNESKO, Jahon banki va GFR, AQSH, Shveysariya, Yaponiyadagi gidrometeorologiya tashkilotlari bilan gidrometeorologiya sohasidagi loyihalarni yaratish va amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

O'zbekistonda G.x.ga 1992-yildan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya Bosh boshqarmasi rahbarlik qiladi (qarang "[Boshgidromet](#)").







**Meteorologik stansiya — ob-
havo va iqlimni oʻrganish,
atmosferani ilmiy tadqiq qilish
maqsadida uzluksiz
meteorologik kuzatishlar olib
boradigan muassasa.**



Meteorologik stansiyada atmosfera temperaturasi, bosim va havo namligi, shamol, yog'inlar, bulutlar va boshqa meteorologik elementlar uzluksiz aniqlab turiladi.



Aqlli agrometeorologik stansiyalari




O'zgidrometning eng baland tog' meteostansiyasi — Oygaining







Qanday?



Qanday?



Qanday?



B/BX/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bilib oldim

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rasulov A.R., Hikmatov F.H., Aytbaev D.P. *Gidrologiya asoslari.*-Toshkent: Universitet, 2003.-342 b.
2. Bolshakov M.N. *Vodnie resursi rek sovetskogo Tyan-Shanya metodi ix rascheta.*— Frunze, 1974.— 305 s.
3. Bulavko A.G. *Vodniy balans rechnix vodosborov.*— L.: Gidrometeoizdat, 1971.— 303 s.
4. Vinogradov Yu.B., Kuchment L.S., Rojdestvenskiy A.V. *Problemi sovershenstvovaniya teoriy y metodov rascheta stoka. Generalnie dokladi V Vsesoyuz. gidrol. s’ezda,*—L .: Gidrometeoizdat, 1986, s. 47— 63
5. Luchsheva A.A. *Prakticheskaya gidrologiya.*-L.: GMIZ, 1976.-440 s.